



ISSN (E) - 2181-1334



ILMIY-USLUBIY JURNAL

UzACADEMIA

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL




№ 12 20/03/2021

WWW.ACADEMIASCIENCE.ORG

Volume 2. Issue 1 (12), march 2021





“ACADEMIA SCIENCE” ILMYIY-TADQIQOTLAR MARKAZI

UZACADEMIA

**ILMIY-USLUBIY JURNALI
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL ISSN (E)
– 2181 - 1334**

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

**VOL 2, ISSUE 1 (11), MARCH 2021
PART - 1**



www.academiascience.org

TAHRIRIYAT

Editor in chief

Eshmatov Gayratjon Marupovich

Executive Secretary

Ravshanjon Abdullayev

*He is a history teacher at Baghdad District**8 Secondary School***Preparing for publishing**

Khalikov Mukhriddin Tavakkaljon ugli

*Fergana State University***Bosh muharrir**

Eshmatov G'ayratjon Ma'rupovich

Mas'ul kotib

Ravshanjon Abdullayev

*Bag'dod tumani 8-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi***Nashrga tayyorlovchi**

Holiqov Muhridin Tavakkaljon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Sultonali Mannopov*O'zbekiston xalq artisti, professor***Eshmetov Izzat Do'simbatovich***O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, texnika fanlari doktori, professor***Matibaev Taspolat Baltabaevich***Sotsiologiya fanlari doktori (DSc), Professor, Turon FA Akademik***Abdullayev Muzrobjon Gulamovich***Andijon davlat universiteti, professor***Akramova Shahnoza Abrorovna***Milliy gvardiya Xarbiy-texnika instituti Psixologiya va pedagogika kafedrasini mudiri, Pedagogika fanlari doktori, dotsent***Arslanov Sharafutdin Sultanovich***kimyo fanlari doktori, professor***Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna***Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori***Oripov O'rolboy Ahmedovich***Navoiy davlat pedagogika instituti, PhD***Fazliyeva Zebo Kamarbekovna***O'zbekiston davlat Xoreografiya Akademiyasi, dotsent***Akbarov Qobuljon Yakubovich***Qo'qon davlat pedagogika instituti, tarix fanlari nomzodi***Azimov Baxtiyor Ganievich***O'zbekiston davlat konservatoriyasi, Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent***Xusanova Xayriniso Tayirovna***O'zMU, sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent***Smaylova Gulmari Yuldashevna***QRXTHQTMO hududiy markazi, dotsent***Bazarov Otabek Odilovich***Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD***Popov Dmitriy Vladimirovich***Andijon mashinasozlik instituti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***Raximova Gulchexra Sobirjonovna***Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD***Umarova Maxliyo Yunusovna***O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, f.f.n, dotsent***Ismoilova Muhayyo Qozoqboyevna***Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, filologiya fanlari nomzodi***Toshtemirov Otabek Abidovich***Farg'ona politexnika instituti*

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	НУТҚИЙ МУЛОҚОТНИНГ ЯКУНИЙ БОСКИЧИ ҲАҚИДА: ВЕРБАЛ ВА НОВЕРБАЛ ШАКЛЛАРИ Зарипова Азиза Қахрамоновна	6
2.	ИММУНИЗАЦИЯ ЧАСТО БОЛЕЮЩИХ ДЕТЕЙ ПРИ ЛЕЧЕНИИ РЕСПИРАТОРНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ Сирожиддинова Хиромон Нуриддиновна, Ортиқбоева Нилуфар Турсунбаевна, Набиева Шоиста Мустафаевна, Абдухалик-Заде Гулнора Ахтамавна	9
3.	ВНУТРИУТРОБНОЕ ИНФИЦИРОВАНИЕ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ПЕРИНАТАЛЬНОЙ ПАТОЛОГИИ Сирожиддинова Хиромон Нуриддиновна, Усманова Мунира Файзуллаевна, Тухтаева Машхура Мухиддиновна, Абдухалик-Заде Гулнора Ахтамавна	15
4.	РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖАРАЁНИДА ОНЛАЙН ТАЪЛИМ БАЪЗИ МОДЕЛЛАРИ ВА УЛАРНИ ХУСУСИЯТЛАРИ М.С. Косбергана Баходиров Жасурбек Олёрбек ўғли	23
5.	DIFFERENSIAL VA INTEGRO-DIFFERENSIAL TENGLAMALAR BILAN IFODALANUVCHI AYRIM PARAMETRLI AMALIY MASALALARNI YECHISH Akbarov U. Vohobjonov A.X., Abdusattorova G. A.	30
6.	KONSEPT TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY TALQINLARI Axmedova Saodat	37
7.	2021-YILGI DAVLAT DASTURIDA BELGILANGAN VAZIFALAR Ro'zmetov Mustafo Ismoil o'g'li Karimov Akmal Kurbonboyevich Yusupov Rahimboy Bekbergan o'g'li	43
8.	BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARINI XORIJIY TILLAR BILAN INTEGRATSIYALASH VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI Abdiyeva.D.X, Satiboldiyeva.L.A, Begimqulova.N	46
9.	KOSHINING INTEGRAL VA DALAMBER ALOMATI, UMUMLASHGAN GARMONIK QATOR Safayev.U.K, Raxmonova.Sh.S, Komolova.G.Sh	50
10.	BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING NUTQINI O'XSHATISHLAR BILAN BOYITISHDA ANVAR OBIDJON ASARLARIDAN FOYDALANISH Axmedova D.B. Yoqubova Nilola	55
11.	TUGALLANMAGAN SUICIDDAN KEYINGI BEMORLAR SHAHSINI XARAKTERLOVCHI IJTIMOIY PARAMETRLARI Усманова М.Б, Солиев Д.М. Исмоилов Э.К.	59
12.	FUNCTIONAL SEMANTIC STUDY OF LEXICAL DOUBLETS IN ENGLISH AND THEIR ETYMOLOGY Shahnoza Mahmudova	64
13.	ТЕМА ЛЮБВИ В ПОЭЗИИ А.АХМАТОВОЙ Олимова Сурайё Алишеровна	67
14.	ЁШЛАР – ДАВР ВА ЗАМОН ЭГАСИ Юлдашев Соатбой Жиянбоевич Халимбетов Юсуп Машарипович Ибрагимова Эльнара Фармановна	71
15.	ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ХАЛҚОНА ОҲАНГЛАР Муродиллаев Нурали	77
16.	ФОРМИРОВАНИЕ ПРАВСТВЕННОГО ОТНОШЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ К ОБЩЕСТВЕННО ПОЛЕЗНОМУ ТРУДУ Абдуазизова Вероника Вадимовна Эргашев Ихтиёр Бахтиёр угли	81
17.	РАЗВИТИЕ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА ЗАНЯТИЯХ МАТЕМАТИЧЕСКОГО КРУЖКА Мавлянова Вера Шарифовна	85
18.	РУССКАЯ ПРОЗА XX ВЕКА И МИХАИЛ АФАНАСЬЕВИЧ БУЛГАКОВ	91

	Имомов Азамат Тухтаевич	
19.	THE EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE INSTRUCTIONAL TECHNOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING Bakhranova Bakhora Bakhranovna	93
20.	SILINDRSIMON G'OVAKKA DINAMIK TA'SIR MASALASI Aqmonova Laylo Qurbonboy qizi	96
21.	NAVRO'Z – UMUMXALQ BAYRAMI Sapayev Rasulbek Davlatovich Xodjayeve Shoxida Sadullayevna Soliyev Abror Muzaffar o'g'li	101
22.	GENETIKAGA DOIR MASALALAR YECHISH METODIKASI Raxmonova Dildora Abdumutalovna	104
23.	СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПОДГОТОВКИ ШЛАКОВ МЕДНОГО ПРОИЗВОДСТВА Сирожов Талант Толибович Уткирова Шахзода Ихтиёр кизи Муртозаева Мохинабону Мансур кизи	112
24.	TA'LIM JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURLARIDAN FOYDALANISH Niyozov Muhammad Bahronovich Yuldashev Ulmasbek Abdubanapovich	116
25.	УЧБУРЧАК ШАКЛИДАГИ МИНОРАСИМОН ИНШОТНИНГ ГЕОМЕТРИК ПАРМЕТРЛАРИНИ АНИҚЛАШДА БИР ТОМОНЛАМА ГЕОДЕЗИК УСУЛИНИ ҚЎЛЛАНИШИ ТЎҒРИСИДА Назаров Бекчанбой Рустамович	121
26.	MIRAZIZ A'ZAM – VATAN ISTIQLOLINI KUYLAGAN SHOIR Axmedova Dildora Bahodirovna Eshqulova Gulhayo	124
27.	VATANIMIZ TABIATINI O'RGANISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI M.R.Atabayeva N.O.Saidmuratova	131
28.	ОСОБЕННОСТИ МЕТОДОЛОГИИ ИССЛЕДОВАНИЯ ТЕХНОГЕННЫХ ОТХОДОВ ГИДРОМЕТАЛЛУРГИЧЕСКИХ ЗАВОДОВ Хужакулов Нурмурод Ботирович Рузиев Улугбек Мамарасулович Уткирова Шахзода Ихтиёр кизи Муртозаева Мохинабону Мансур кизи	140
29.	МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI Sirojiddinova Nilufar Qodirali qizi Abdurasulova Mohidil Qahramon qizi Daminova Mavluda Murodbek qizi	144
30.	TIL O'RGATISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH VA ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING FAOLIYATI Ergashova Feruza Yuldashevna	148
31.	ZAMONAVIY O'QITISH TEXNOLOGIYALARINING O'QITUVCHI FAOLIYATIDA AHAMIYATI Shodiyev Rahimjon Safarovich	153
32.	MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK MA'NAVIY MEROSI – ZAMONAVIY YOSHLAR UCHUN IBRAT NAMUNASI A'zamjonova Saodat Shavkat qizi G.K.Masharipova	157

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING NUTQINI O‘XSHATISHLAR BILAN BOYITISHDA ANVAR OBIDJON ASARLARIDAN FOYDALANISH

Axmedova D.B.

BuxDU o‘qituvchisi, f.f.f.d.(PhD)

Yoqubova Hilola

BuxDU talabasi

Annotatsiya: *Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqining jilvadorligini va serqirraligini oshirishda, shuningdek, o‘xshatishlar bilan boyitishda Anvar Obidjon she‘riyatining o‘ziga xos jihatlari haqida mulohaza bildirilgan.*

Tayanch so‘z va iboralar: *boshlang‘ich ta‘lim, o‘xshatishlar, o‘qish kitobi, jumla, tasvir, nutqiy ravonlik.*

USING ANVAR ABIDJAN'S WORKS TO ENRICH THE SPEECH OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS WITH METAPHORS

Akhmedova D.B.

Teacher of BSU, PhD

Yoqubova Hilola

A student of BSU

Annotation: *The article discusses the unique aspects of Anvar Abidjan's poetry in enhancing the eloquence and versatility of primary school students' speech, as well as enriching it with metaphors.*

Key words: *elementary education, parables, textbook, sentence, picture, fluency.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ РАБОТ АНВАРА ОБИДЖАНА В ОБОГАЩЕНИИ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ МЕТАФОРАМИ

Ахмедова Д.Б.

Преподаватель БухГУ

Якубова Хилола

Студентка БухГУ

Аннотация: *В статье рассматриваются уникальные аспекты поэзии Анвара Абиджана в повышении красноречия и разносторонности речи учащихся начальных классов, а также в обогащении ее аналогиями.*

Ключевые слова: начальное образование, притчи, учебник, предложение, рисунок, беглость.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun murakkab hodisa va predmetlarning mohiyatini anglash hamda tushunish jarayonida biroz qiyinchiliklarga duch kelinadi, bunday qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun bizga o'xshatishlar yordamga keladi. O'xshatishlar orqali o'quvchilar uchun tushunarsiz bo'lgan voqea-hodisa, boshqa bir soddaroq, ya'ni o'quvchilar uchun tushunarli bo'lgan voqea-hodisa orqali tushuntiriladi.

O'xshatishlar orqali so'zlarda ifodalangan ikki yoki undan ortiq narsa va hodisa, xususiyatlar orasida mavjud bo'lgan o'xshashlik, sifat va belgidagi umumiylik o'zaro solishtiriladi, tasvirlanayotgan narsa-hodisalarning ayrim xususiyati yorqin, chuqurroq va ta'sirliroq ochib beriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tushunish va anglash jarayonlarini osonlashtirish va ularning xotirasida mustahkam o'rin olishi uchun ham boshlang'ich sinf darsliklarida bir qancha o'xshatishlardan foydalanilgan. O'xshatishlar o'quvchilarning tushunishi uchungina emas, shu mashg'ulotlarga bo'lgan, ya'ni, hikoya hamda ertaklarni, she'rlarni o'qishga bo'lgan qiziqishini ham oshiradi. Anvar Obidjon ijodida ham turli o'xshatishlardan foydalanilgan.

4-sinf o'qish kitobida berilgan Anvar Obidjon qalamiga mansub "Bo'rining tabib bo'lgani haqida ertak"ning boshlanishida:

"Nelar bo'lmas jahonda!..

Yer go'yo ters aylandi

Tabiblikka o'rmonda

Yirqich Bo'ri saylandi" parchasida bo'rining tabiblikka saylanishi yerning ters, ya'ni teskari aylanishiga o'xshatilyapti. Yer o'z o'qi atrofida teskari aylanmagani singari bo'rining ham o'rmonda tabib bo'lishi inkonsizligi chiroyli tarzda ochib berilgan.

"Odobli bo'lish osonmi?" ertagida: - Mana, tiling ancha burrolashib, tashqariga o'zing chiqib o'ynasang o'ynagudek kattagina bo'lib qolding, endi sal esingni yig'ib ol, odobli bo'l,-deb nasihat qilibdi. Ertakda yosh sichqonchanning onasi bolasiga katta bo'lganini, endi bemalol o'ynab-kulib, mustaqil yura olishini o'ynasa o'ynagudek o'xshatishida aniq, ravshan hamda lo'nda ifodalagan.

Shu ertakda "Birinchi duodan ko'ngli tog'dek ko'tarilgan Sichqoncha quvonchdan irg'ishlab-irg'ishlab borayotganida, oldidan sersoqol qari Echki chiqib qolibdi". Sichqonchanning odobli bo'lib Mushukka salom berganida, Mushuk "Umring uzoq bo'lsin",-deb duo qilgandagi xursanchilik, mamnunlik qiyofasi aniq, lo'nda va chiroyli ochib berilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ertakdagi bu jumlaning o'qishlari bilan sichqonchani cheksiz quvonchi ko'z oldida namoyon bo'ladi.

Yana shu ertakda "Qachon alik olasiz? Yuragim g'ash bo'lib ketyapti, tog'ajon!"- deya xuddi eshikni qoqqandek Toshbaqaning kosasini taqira-tuqur mushtlab javrayveribdi" jumlasida ham chiroyli o'xshatish qo'llanilgan. Sichqonchani toshbaqa kosasini taqillatishi eshikni qoqishga o'xshatilgani boshlang'ich sinf o'quvchilarida toshbaqa kosasidan chiqadigan ovoz haqidagi taassurotni uyg'otadi. Ertakdagi har bir o'xshatish bolalar dunyoqarashi, ularning olamidani kelib chiqib o'z o'rnida juda ham ajoyib va ta'sirli tarzda ifodalangan.

Bundan tashqari, 3-sinf o'qish kitobiga kiritilgan Anvar Obidjon qalamiga mansub ertak va she'rlarda ham o'xshatishlardan unumli foydalanilgan. Misol uchun "O'quvchining o'gitlari" she'rida:

"Ey o'quvchi, bilki, har so'z

Nondek aziz, nondek uvol" misralari orqali o'quvchilar ongiga yoshligidan singdirib kelinadigan nonning azizligi, uning har bir ushug'ini uvol qilmasdan tanovul qilish odobi orqali so'zni ham nondek aziz ko'rish ifodalangan. O'quvchilar ongiga nonning ushug'ini ham uvol qilmaganimiz kabi gapiradigan gapimiz, so'zlarimizni ham o'ylab, bizni tinglayotgan insonning ko'ngliga ozor bermasdan, nojo'ya so'zlarni qo'llamasdan gapirish odobiga amal qilish muhrlanadi.

Boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan Anvar Obidjon qalamiga mansub ertak, hikoya, she'rlarda ko'p o'rinda o'xshatishlardan foydalanilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari xayolot dunyosini inobatga olgan holda, shoirimiz ko'p o'rinlarda insonlarda mavjud xulq-atvor, ularda kechadigan his-tuyg'ularni mohirona tarzda hayvonot dunyosidagi qaysidir hayvonlarga o'xshatish orqali o'quvchilarga mohirona yetkazib bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G'ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimov. O'QISH KITOBI. 4-sinf uchun darslik. –"Yangiyo'l poligraf servis", Toshkent-2017.
2. M.Umarova, X.Xamrakulova, R.Tojiboyeva. O'QISH KITOBI. 3-sinf uchun darslik. –"O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2019.
3. Akhmedova D.B. Semantic labeling of language units// International Journal on Integrated Education. e-ISSN: 2620 3502 p-ISSN:2615 3785. Volume 3, Issue I, Jan 2020. – P. 177-179 // <https://www.researchgate.net/publication/339152869>
4. Akhmedova D.B. Set of semantic tags for Uzbek language units: constants and operator/classifier. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Impact Factor, 2409-0085(online) Issue:02 Volume:82 Published 29.02.2020.-P.177-179.

<https://www.elibrary.ru/defaultx.asp?rpage=https://www.elibrary.ru/item.asp?id=42658994>



